

Qurbonov Salohiddin O‘rmonbek o‘g‘li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik

universiteti 1-bosqich doktoranti

Arab filologiyasi kafedrasasi dotsenti

Begmatova Buzahro

Annotatsiya:

Ushbu maqola islom huqiqiga oid masalalarning fatvo borasida ishlatilgan terminlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda terminlarning semantik, leksik-morfologik jihatlarini tahlil qilingan. Fiqh manbalari asosida fatvolarda mavjud terminlarning shakllanishi va qo‘llanishiga doir lingvistik tahlillar, ularning leksikasidagi farqlar haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: fatvo, sahih, ifto, hukm, asah, as-sahih.

Abstract:

This article is devoted to the analysis of the terms used in the fatwa of issues related to Islamic law, in which the semantic, lexical-morphological aspects of the terms are analyzed. Linguistic analyzes of the formation and use of terms in fatwas based on sources of jurisprudence, as well as valuable information about the differences in their lexicon, have been provided.

Key words: fatwa, sahih, ifta, hukm, asah, as-sahih.

Абстрактный:

Данная статья посвящена анализу терминов, используемых в фетвах по вопросам, связанным с исламским правом, в котором анализируются смысловые, лексико-морфологические аспекты терминов. Приведены лингвистические анализы образования и употребления терминов в фетвах на основе источников судебной практики, а также ценные сведения о различиях в их лексике.

Ключевые слова: фетва, сахих, ифта, хукм, асах, ас-сахих.

Ushbu maqolada biror fiqhiy masalada ikki xil rivoyat kelgan bo‘lib, ularning qaysi birini hukm sifatida olish kerakligini aniqlash uchun qo‘llangan termin, iboralar haqida so‘z boradi.

Fatvoni ifoda etadigan terminlar:

Avvalambor, “fatvo” so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak;

الْفَتْوَى: الْجَوَابُ عَمَّا يَسْأَلُ مِنَ الْمَسَائِلِ الشَّرْعِيَّةِ أَوْ الْقَانُونِيَّةِ¹.

Shar‘iy masalalardan yoki qonuniylardan yuzaga kelgan mushkulliklarga javob berishga aytiladi. Ko‘pligi “فتاوى” dir.

وَالْفَتْوَى: تَبْيِيهُنَ الْحُكْمِ الشَّرْعِيِّ عَنِ دَلِيلٍ لِمَنْ سَأَلَ عَنْهُ

Masala so‘rab kelganga biror dalildan hukmini yoritib berishdir². Aytish joizki, hanafiy ulamolari bunday iboralarni ko‘p ishlatishgan. Ularning hammasini bu o‘rinda ifoda etish biroz mushkul, shu bois qisqacha berib o‘tishga harakat qilamiz:

الإِخْتِيَاظُ، الْأَحْوَابُ، الْأَشْبَهُ، الْأَصْحُ، الْأَصْلَحُ، الْأَظْهَرُ، الْأَوْجَهُ، الْأَوْفَقُ، الْأَوْلَى، وَبِهِ أَخَذَ عُلَمَائُنَا، وَبِهِ جَرَى الْعُرْفُ، وَ بِهِ نَأْخُذُ، وَ بِهِ يُعْتَمَدُ، وَ بِهِ يُفْتَى، الصَّحِيحُ، وَعَلَيْهِ الْإِعْتِمَادُ، وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْأُمَّةِ، وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْيَوْمِ، وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى، وَعَلَيْهِ فَتْوَى مَشَائِخُنَا، وَالْفَتْوَى عَلَيْهِ، وَ هُوَ الْمُنْعَارَفُ، وَ هُوَ فِي زَمَانِنَا، وَ هُوَ الْمُعْتَمَدُ، وَ هُوَ الْوَجِيهُ، وَغَيْرُهَا مِنَ الْأَلْفَاظِ

“وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى” (Va a‘layhil fatva) – bu so‘z “fatvo unadir” degan ma‘noni anglatadi. Birikmadagi “zamid”ning qaytish joyini aniqlab olamiz-da masalaning hukmi qanday ekanligini

¹ Sa‘diy Abu Jiyb. “Al-Qomus al-fiqhiy lug‘atan va istilahan”. Damashq: “Dorul fikr”; 1988-yil ikkinchi bosma. – B.281.

² “Mavsu‘atul fihiyya al-Kuvaytiyya”. Vaqf va Islomiy ishlar tashkiloti tomonidan tuzilgan. –J.32. –B.20.

bilib olamiz³. “وَبِهِ يُفْتَى” * “وَبِهِ يَأْخُذُ” * “وَعَلَيْهِ الْإِعْتِمَادُ” – bu sanab o‘tilganlarning hammasi garchi lafzlarida farq bo‘lsa-da, bir ma’noni ifoda etadi.

“وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْيَوْمِ” – bu ibora agarchi zohiriy ma’nosidan “Bugun amal shunga ko‘radir”, deya bir kunga xos qabilidagi ma’noni berayotgan bo‘lsa-da, zamon bu o‘rinda mutloqdir, ya’ni bugungi kunlikka qaydlanib qolmaydi. Bu birikmani lafziy tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda “masdar”ni zamonga izofa qilish bordir, “ramozon ro‘zasi” deyilganidek⁴.

“الْمُخْتَارُ” * “الْأَظْهَرُ” * “الْأَصْحَحُ” * “وَهُوَ الصَّحِيحُ” * “وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْأُمَّةِ” – bu iboralarning deyarli ma’nolari farqli emas, agar lafzi e’tiborga olinmasa. Lekin hukm e’tiboridan bir-birlaridan quvvatli bo‘lishi mumkin, biroq hammasi fatvo ma’nosini ifoda etadi.

“الْأَشْبَهُ” (Ashbah) – bu iboraning mazmuni shundayki, u dalillari rivoyat jihatdan o‘xshash, lekin diroyat jihatidan ustun bo‘ladi. Ya’ni, hukmi ustun bo‘ladi.

“الْأَوْجَهُ” (Avjah) – bu so‘zdan chiqadigan hukmining dalili, boshqasidan ko‘ra dalolati kuchliroq bo‘ladi. Bu yerda biroz zehnni olib qochadigan narsa bor, ya’ni kalimani “yuz” ma’nosidagi “وَجْهٌ” dan olingan deb ma’no berilsa buziladi, lekin biz bu yerda kalimaning asosidagi ma’no “yo‘nalish, tarz, jihat” degan ma’nolari ham borligini e’tibordan qochirmasdan ish tutsak, mazmun: “dalolati jihatidan kuchliroq” ko‘rinishida chiqadi va chalkashlikning oldi olinadi⁵.

Ibn Obidiyn bularni sanab o‘tib yana quyidagilarni ham qo‘shimcha qilgan: “وَبِهِ جَزَى الْعُرْفُ”, “وَبِهِ أَخَذَ عُلَمَانُنَا”, “وَهُوَ الْمُتَعَارَفُ”. Bu o‘rinda urfda shakllanib ketgan ishlarga amal qilishga fatvo berilishi durustligiga ishora bor. Haskafiy: “Shayximiz Ramliy o‘zining fatvolarida: “Ba’zi lafzlar ba’zisidin kuchliroqdir, masalan: “وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى”⁶ so‘zi “الصَّحِيحُ”, “الْأَشْبَهُ”, “الْأَصْحَحُ” va boshqa kalimalardan ta’kidliroq, ya’ni kuchliroqdir” degan edilar” deya bu atamalarni izohlaydi. “وَبِهِ يُفْتَى” birikmasi “وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى” atamasidan ta’kidi kuchliroqdir. Shuningdek, “الْأَصْحَحُ” istilohi “الصَّحِيحُ” istilohidan ta’kidliroqdir, “أَحْوَطُ” kalimasi “الْإِحْتِيَاظُ” kalimasidan ta’kidliroqdir. Bu atamalarni bir necha xil tasnif etish mumkin. Misol uchun quvvatliyligi, dalili ustunligi kabi bir necha ko‘rinishda. Biz esa shu quvvat, ustinlik e’tiboridan tasnif etmoqchimiz. Bu iboralarning ulamolarning ijmo‘si, ittifoqiga ishora qiladiganlari ham bor. Masalan, “وَعَلَيْهِ عَمَلُ الْأُمَّةِ” va shuning ma’nosidagilar kabi. Ma’nosi “quvvatli” ekanligini ifoda etadigan ham bor va bu ma’nosida ustunlik borlaridan ko‘proq ma’no ifoda etadi. Masalan, “وَعَلَيْهِ الْفَتْوَى” birikmasi kabi, bu iboraning o‘zini xoslab qo‘ymaymiz, balki “فَتْوَى” harflari qatnashgan har qanday atamani shu ikkinchi qismga qo‘shaveramiz. Misol uchun, “وَبِهِ يُفْتَى” birikmasini olishimiz ham mumkin, ya’ni bularning mazmun-mohiyati bir xil, biroq o‘zaro tafovutlari ham bor.

“Ustunlik” ma’nosini ifoda etadiganlari, ya’ni bu atama bilan atalganlari o‘z zimnida “ustunlik” ma’nosini saqlaydi. Masalan, “الصَّحِيحُ” va “الْأَصْحَحُ” istilohlari. Lekin ulamolar bu ikkisini ham o‘zaro ustunlik jihatlarini tahlil qilib, bir necha fikrlarni aytgan⁷.

Xulosa qilib aytganda atamalar tushuncha va mazmunlarni bir-biridan farqlashga ahamiyat qaritishni nazarda tutsada, lekin bir mazmunga oid tushunchalarni terminlashtirilganida ularni

³ Ahmad Muhammad Nasiyruddin An-Naqiyb. “Al-mazhabul hanafiy”. Riyoz shahri: “Maktabatur rushd” birinchi bosma: 2001. –J.1. –B.368-369.

⁴ Doktor Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. “Al-Fathul mubiyn fi ta’rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyin”. Bayrut: Dorul kutub ilmiya. 2004 yil. –B.28.

⁵ “al-Fathul mo’biyn fi ta’rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyin” Doktor. Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. Misr: “Dorus salom”: 2009 yil. –B.28.

⁶ Ya’ni “فَتْوَى” harflari qatnashgan har qanday atama “sahih” dan kuchlidir.

⁷ Doktor Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. “Al-Fathul mubiyn fi ta’rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyin”. Bayrut: Dorul kutub ilmiya. 2004 yil. –B.58.

tasniflash zarur ekan. Hamda ayrim davriylik mazmuniga ega terminlarni esa davriy bosqich va katigoriyalarga ajratish terminlarning leksikasini yana ham ochib beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. “Mavsu’atul fihiyya al-Kuvaytiyya”. Vaqf va Islomiy ishlar tashkiloti tomonidan tuzilgan. – J.22 –B.50.
2. Sa’diy Abu Jiyb. “Al-Qomus al-fiqhiy lug‘atan va istilahan”. Damashq: “Dorul fikr”; 1988-yil ikkinchi bosma. – B.52.
3. Сабирова, Н. Э. (2021). ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ИСКУССТВА ХАЛФА ХОРЕЗМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР (pp. 387-390).
4. D.Muhammad Ahmad Saroj, D.Ali Jum’a Muhammad. “Rosailu ibn Nujaym va al-musommat ar-rosail az-ayniyya fi mazhab al-hanafiyya”. Misr: Qohira: “Dorussalom”: 1999\1998. – B. 589.
5. “Fathul bobi inoya bi sharh an-niqoya”. Aliy ibn Sulton Muhammad al-Qori. Liavan: Bayrut: “Dorul Arqam ibn Abul Arqam” 1997. – J. 2. – B. 557.
6. “Sharhul viqoya ma’ muntahan niqoya”. Ubaydulloh ibn Masu’d tojush sharia. Do’ktir Saloh Muhammad Ubul haoj. 1-juz. 2006-yil bosma. 108-bet.
7. Ahmad Muhammad Nasiyruddin an-Naqiyb. “Al-mazhabul hanafiy”. Riyoz shahri: “Maktabatur rushd” birinchi bosma: 2001. 1-j. –B.289.
8. “Al-Fathul mo’biyn fi ta’rifi mustalahatil fuqohai va al-usuliyin” Doktor. Muhammad Ibrohim al-Hifnoviy. 28-bet.
9. Ahmad Muhammad Nasiyruddin an-Naqiyb. “Al-mazhabul hanafiy”. Riyoz shahri: “Maktabatur rushd” birinchi bosma: 2001. –J.1. –B.295.
10. Xolid Ramazon Hasan. “Mu’jamu usulul fiqh”. Misr: “Ravza” nashriyoti; 1998-yil. – B. 343.
11. Сабирова, Н. Э. (2018). ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛОВ ОБРЯДОВЫХ ПЕСЕН, СВЯЗАННЫХ С ДРЕВНИМИ КУЛЬТАМИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 73-74).
12. Vahba Az-Zuhayliy. “Al-Vajiz fi usulil fiqh”. Suriya: Bayrut: “Dorul fikr”: 1999-yil birinchi bosma. – B.133.
13. Doktor Ahmad al-sharbosiy. “Al-mo’jamul iqtisodiy al-islomiy”. “Dorul jiy1”: 1981-yilgi bosma. 499 bet.
14. D. Muhammad Ahmad Saroj, D. Ali Jum’a Muhammad. “Rosailu ibn Nujaym va al-musommat ar-rosail az-ayniyya fi mazhab al-hanafiyya”. Misr: Qohira: “Dorussalom”: 1999\1998. 635-bet.
15. “al-Maktaba ash-shomila”. Fiqh, hadis
16. Imom Saraxsiy. “Mabsut”. Bayrut: “dorul fikr”: 2000. 236 bet.
17. Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Quroshiy. “Al-Javahirul muziyya fi tobaqotul hanafiyya”. Riyoz: “dorul ulum” ikkinchi bosma:1993. 5 jild. 3326